

**O'ZBEKISTONDA XITOIY SANOAT SIYOSATI TAJRIBASINI
TATBIQ ETISHNING
INSTITUTSIONAL CHEKLOVLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH
MEXANIZMLARI**

Ahmedova Shahnoza Baxtiyor qizi

Magistratura talabasi, Iqtisodiyot mutaxassisligi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya

universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Ilmiy rahbar: dots. Mo'minov Ilhom Aktam o'g'li

Akhmedovashakhnoza44@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda Xitoy sanoat siyosati tajribasini O'zbekistonda tatbiq etishga to'sqinlik qiluvchi institutsional cheklovlar qiyosiy tahlil va OLS panel ekonometrik modellashtirish (Fixed Effects, Hausman testi asosida) orqali o'rganildi. Rivojlanayotgan davlat (developmental state) paradigmasi – Johnson, Evans va Chang asarlarida asoslangan – nazariy asos sifatida qo'llanildi. Ikki mamlakat o'rtasida oltita asosiy institutsional bo'shliq aniqlandi: siyosiy-ma'muriy tizim farqlari (WGI Hukumat Samaradorligi: Xitoy +0,48 vs O'zbekiston -0,31), davlat korxonalari samarasizligi, innovatsion faollik pastligi (R&D – YIMning 0,18%), korrupsiya darajasining yuqoriligi (TI, 2022: 126-o'rin), intellektual mulk himoyasining zaifligi va davlat-biznes hamkorligining yetarli rivojlanmaganligi. Fixed Effects regressiya natijalari Xitoyda R&D xarajatlarining 1 foizga o'sishi sanoat o'sishini 3,8 foizga oshirishini ko'rsatdi; O'zbekistonda innovatsiyalar ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib, sanoat o'sishi asosan investitsiya hajmiga bog'liqligi aniqlandi. Xitoy

modelining cheklanganliklari (davlat qarzlar, overcapacity, hududiy tengsizlik) ham kritik ko'rib chiqildi. Tadqiqot asosida O'zbekiston uchun rivojlanayotgan davlat modelining milliy versiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish mexanizmi (2025–2030) taklif etildi.

Kalit so'zlar: institutsional bo'shliqlar, sanoat siyosati, rivojlanayotgan davlat paradigmasi, Xitoy tajribasi, O'zbekiston iqtisodiyoti, Fixed Effects model.

ABSTRACT

This study examines institutional constraints hindering the application of China's industrial policy experience in Uzbekistan through comparative analysis and Fixed Effects panel econometric modeling (Hausman test confirmed). The developmental state paradigm – theorized by Johnson, Evans, and Chang – serves as the theoretical foundation. Six institutional gaps were identified: political-administrative system differences (WGI Government Effectiveness: China +0.48 vs Uzbekistan –0.31), state-owned enterprise inefficiency, low innovation activity (R&D at 0.18% of GDP), high corruption (TI 2022: rank 126), weak intellectual property protection, and inadequate public-private cooperation. Fixed Effects results show that a 1% increase in R&D expenditure in China raises industrial output by 3.8%, while the innovation effect remains statistically insignificant in Uzbekistan, where growth is predominantly investment-driven. China's model limitations – debt accumulation, sectoral overcapacity, and regional inequality – are critically assessed. A phased national developmental state mechanism (2025–2030) is proposed for Uzbekistan.

Keywords: institutional gaps, industrial policy, developmental state paradigm, China's experience, Uzbekistan economy, Fixed Effects model.

KIRISH

Xitoy 1978–2020 yillar orasida o'rtacha yillik 9,5 foizlik o'sishga erishib, jahon sanoat ishlab chiqarishining 28 foizini ta'minlaydigan yetakchi davlatga aylandi [1]. O'zbekistonda esa sanoatning YIMdagi ulushi 26,4 foizni tashkil etsa-da, eksportning 70 foizdan ortig'i hali ham xom ashyo va past qayta ishlangan mahsulotlardan iborat

[2]. Xitoy modelini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib qo'llash institutsional muhitlar o'rtasidagi tafovutlar sababli samarasiz bo'lishi mumkin.

Nazariy asos sifatida rivojlanayotgan davlat (developmental state) paradigmasi [3; 4; 5] tanlab olindi. Chalmers Johnson o'zining MITI va yapon mo'jizasiga oid asarida birinchi marta davlatning sanoat rivojlanishidagi strategik rolini tizimli asoslab berdi [3]. Peter Evans "embedded autonomy" (chuqur ildiz otgan mustaqillik) kontseptsiyasini ishlab chiqib, davlat-biznes munosabatlarining muvozanatini ta'kidladi [4]. Ha-Joon Chang va Dani Rodrik esa "strategik sanoat siyosati" va "yangi strukturaviy iqtisodiyot" yondashuvlarini zamonaviy sharoitga moslashtirishdi [5; 6]. Xitoy modelining o'ziga xosligi – sotsialistik bozor iqtisodiyoti doirasida classical developmental state elementlarini va eksperimental pragmatizmni birlashtirishi – ushbu paradigmadan ajralib turadi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda Xitoy sanoat siyosati tajribasini tatbiq etishning institutsional cheklovlarini aniqlash, Fixed Effects panel modeli orqali ekonometrik baholash va bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ma'lumotlar manbai sifatida Jahon banki (WDI), O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, WIPO, Transparency International va Worldwide Governance Indicators hisobotlari olindi.

1. ASOSIY INSTITUTSIONAL BO'SHLIQLAR

Qiyosiy tahlil natijasida ikki mamlakat o'rtasida oltita asosiy institutsional bo'shliq kategoriyasi aniqlandi. Har bir bo'shliq xalqaro indekslar orqali miqdoriy asoslangan (1-jadval).

Institutsional soha	Xitoy	O'zbekiston	Manba
Siyosiy-ma'muriy tizim	Markazlashgan uzoq muddatli rejalashtirish; WGI	Koordinatsiya zaif; WGI Hukumat	WGI, 2022

	Hukumat Samaradorligi: +0,48	Samaradorligi: −0,31	
Davlat korxonalari	Strategik tarmoqlarda nisbatan samarali; Fortune 500 da 124 ta	Ko'pchiligi zarar bilan ishlaydi; korporativ boshqaruv cheklangan; ROE: 2–3%	NBS; O'zDSt
R&D xarajatlari	YIMning 2,4% (2020) — 378 mlrd \$	YIMning 0,18% (2022) — Xitoydan 13 barobar kam	WIPO, 2022 [9]
Korrupsiya indeksi (TI, 2022)	65-o'rin (100 dan 45 ball)	126-o'rin (100 dan 31 ball)	TI, 2022 [10]
Intellectual mulk	Kuchli patent tizimi; 1,5 mln patent (2020); maxsus IP sudlari	WIPO GII bo'yicha mintaqaviy o'rtachadan past; IP sudlari yo'q	WIPO GII, 2022
Davlat-biznes hamkorligi	Muntazam strategik dialog; rasmiy Boao Forum mexanizmlari [8]	Rasmiy mexanizmlar cheklangan; DB 2020: 69-o'rin	DB, 2020; Li & Zhou, 2005 [8]

1-jadval. Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi institutsional bo'shliqlar (xalqaro indekslar asosida)

2. EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI

Model spetsifikatsiyasi. Sanoat qo'shilgan qiymatining o'sish sur'ati (IND_GROWTH) tobe o'zgaruvchi sifatida tanlangan. Mustaqil o'zgaruvchilar: R&D xarajatlari (RD), investitsiyalar (INV), eksport (EXPORT) va mehnat unumdorligi (LABOR_PROD). Formal model:

$$IND_GROWTH_{it} = \beta_0 + \beta_1 \cdot RD_{it} + \beta_2 \cdot INV_{it} + \beta_3 \cdot EXPORT_{it} + \beta_4 \cdot LABOR_PROD_{it} + \mu_i + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda μ_i — mamlakatga xos kuzatilmaydigan samaralar (Fixed Effects); ε_{it} — tasodifiy xato. 2000–2022 yillarni qamrab olgan panel ma'lumotlar (N = 46: Xitoy n = 30, O'zbekiston n = 22) STATA 17 dasturida qayta ishlandi.

Model tanlash. Fixed Effects yoki Random Effects modelini tanlash uchun Hausman diagnostik testi o'tkazildi: $\chi^2(4) = 18,42$; $p < 0,01$. Natija Fixed Effects modelini qo'llash zarurligini tasdiqladi. Bundan tashqari, Breusch-Pagan testi heteroskedatisiteni aniqladi ($p = 0,03 < 0,05$), shuning uchun Driscoll-Kraay robust standart xatolari qo'llanildi. Durbin-Watson statistikasi: Xitoy — 1,94; O'zbekiston — 1,88 (avtokorrelyatsiya jiddiy emas). Multikollinearlik: barcha o'zgaruvchilar uchun VIF < 4,2.

O'zgaruvch i	Xitoy β	p- value	O'zbekisto n β	p- value
R&D xarajatlari (RD)	3,82** *	<0,0 1	0,18	>0,1 0 (a.s.)
Investitsiyal ar (INV)	0,21**	<0,0 5	0,61**	<0,0 5
Eksport (EXPORT)	0,14*	<0,1 0	0,08	>0,1 0 (a.s.)

Mehnat unumdorligi (LABOR_PROD)	2,13**	<0,0	0,32	>0,1
		5		0 (a.s.)
R ² (within)	0,87	—	0,74	—
Kuzatishlar soni (N)	30	—	22	—

2-jadval. Fixed Effects regressiya natijalari. Eslatma: *** $p < 0,01$; ** $p < 0,05$; * $p < 0,10$; a.s. — ahamiyatsiz. Driscoll-Kraay robust standart xatolari qo'llanildi.

Natijalar tahlili. Xitoy bo'yicha: R&D xarajatlarining 1 foiz punktga o'sishi sanoat o'sishini 3,82 foizga oshiradi ($\beta = 3,82$; $p < 0,01$). Ushbu yuqori ta'sir koeffitsiyenti Xitoyda R&D investitsiyalarining asosan yuqori texnologiyali tarmoqlar — yarimo'tkazgichlar (SMIC, CXMT), sanoat robotlari, elektromobillar (BYD) va 5G texnologiyalari (Huawei) — orqali real sanoat o'sishiga tarqalishi bilan izohlanadi. Mehnat unumdorligining ta'siri ham statistik jihatdan muhim ($\beta = 2,13$; $p < 0,05$).

O'zbekiston bo'yicha: investitsiyalarning 1 foiz punktga o'sishi sanoat o'sishini 0,61 foizga oshiradi ($\beta = 0,61$; $p < 0,05$). R&D xarajatlarining ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz ($\beta = 0,18$; $p > 0,10$). Bu natija faqat mablag' yetishmasligidan emas — innovatsion ekotizimning yetarlicha shakllanmaganligi, university-sanoat aloqalarining sustaligi va patentlash tizimining rivojlanmaganligi bilan ham bog'liq. "Triple Helix" modeli nuqtai nazaridan (Etzkowitz & Leydesdorff, 1995) davlat–universitet–sanoat uchburchagi O'zbekistonda hali samarali ishlamaydi. WIPO Global Innovation Index 2022 bo'yicha O'zbekiston 82-o'rinda (Qozog'iston — 79, Gruzziya — 68, Ozarbayjon — 85), bu mintaqaviy perspektivada ham kam raqobatbardoshligini ko'rsatadi [9].

Asosiy xulosa: Xitoy innovatsiyaga asoslangan intensiv o'sish modeliga o'tgan bo'lsa, O'zbekiston sanoati hozircha asosan investitsiya hajmiga asoslangan ekstensiv o'sish modelida qolmoqda.

3. XITOIY MODELINING TANQIDIY BAHOLASH VA CHEKLOVLARI

Xitoy sanoat siyosatini O'zbekiston uchun ibrat sifatida ko'rib chiqishda uning cheklovlari va salbiy tomonlarini ham inobatga olish zarur. Birinchidan, davlat qarzlar: 2020 yilda umumiy davlat va korporativ qarz YIMning 280 foiziga yetdi, bu moliyaviy tizim barqarorligiga jiddiy tahdid. Ikkinchidan, ba'zi tarmoqlarda ortiqcha ishlab chiqarish salohiyati (overcapacity) muammosi mavjud — po'lat, tsement sanoatlarida kapital isrof sezilarli. Uchinchidan, sohil va ichki hududlar, shahar va qishloq o'rtasidagi Gini koeffitsienti 0,47 ga yetgan iqtisodiy tengsizlik. To'rtinchidan, AQSh–Xitoy texnologik gerilishi natijasida ba'zi tarmoqlar (yarimo'tkazgichlar, sun'iy intellekt) bo'yicha ta'minot zanjirlari buzilishi xavfi mavjud. Ushbu risklarni hisobga olib, O'zbekiston Xitoy tajribasini mexanik nusxalamay, o'z institutsional xususiyatlariga moslashtirilgan shaklda qo'llashi zarur.

4. BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI: UCH BOSQICHLI MILLIY RIVOJLANAYOTGAN DAVLAT MODELI

Aniqlangan cheklovlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston uchun uch bosqichli milliy rivojlanayotgan davlat mexanizmi taklif etiladi. Taklif Janubiy Koreya (1970–1985), Malayziya (Wawasan 2020) va Xitoy (besh yillik rejalar) tajribasiga tayanadi [11; 12].

Bosqich	Asosiy chora-tadbirlar	KPI maqsadlari	Moliyaviy manbalar
1-bosqich (2025–	"Milliy sanoat siyosati kengashi" tashkil	R&D: 0,5% YIM; WGI ball:	Davlat byudjeti + ADB/Jahon Banki

2026) Poydevor	etish; pilot 3–5 ta sanoat klasteri (to'qimachilik, oziq-ovqat, IT); 50 ta davlat korxonasini korporativ boshqaruvga o'tkazish	–0,10 gacha oshirish; Doing Business: 60-o'rin	texnik yordam dasturlari
2- bosqich (2027–2028) Kengaytirish	R&D xarajatlarini 1,0% ga oshirish; texnologik transferga asoslangan 50–100 ta qo'shma korxona; pilot klasterlar tajribasini yangi hududlarga tarqatish	R&D: 1,0% YIM; 50–100 ta qo'shma korxona; qayta ishlangan eksport ulushi: 45%	Xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar + "O'zbekiston Sanoat Innovatsiya Fondi"
3- bosqich (2029–2030) Konsolidatsiya	R&D xarajatlarini 1,5% ga yetkazish; eksportda qayta ishlangan mahsulotlar	R&D: 1,5% YIM; eksport qayta ishlangan: 60%; sanoat	Kengaytirilgan innovatsiya fondi + xususiy sektor R&D hamkorligi

	ulushini 60% ga oshirish; sanoat qo'shilgan qiymatini YIMning 32% ga ko'tarish	YIM ulushi: 32%	
--	---	--------------------	--

3-jadval. O'zbekiston uchun uch bosqichli sanoat siyosati mexanizmi (2025–2030). Manba: muallifning taklifi Janubiy Koreya va Xitoy tajribasi asosida.

Qiyosiy ibrat: Janubiy Koreya 1970–1985 yillarda R&D xarajatlarini YIMning 0,3 foizidan 1,8 foizgacha oshirib, "Han daryosi mo"jizasi"ga erishdi. O'zbekiston uchun taklif etilayotgan yo'nalish ana shu yo'ldan ilhom oladi, lekin mahalliy institutsional va moliyaviy imkoniyatlarni hisobga olib, sekinroq va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

XULOSA

Tadqiqot natijasida O'zbekistonda Xitoy sanoat siyosatini tatbiq etishga to'sqinlik qiluvchi oltita institutsional cheklov aniqlandi va xalqaro indekslar asosida miqdoriy asoslandi. Eng kritik bo'shliq — R&D xarajatlaridagi 13 barobarlik tafovut bo'lib, bu Fixed Effects panel modeli orqali ham tasdiqlangan: O'zbekistonda innovatsiyalar sanoat o'sishiga hozircha statistik ahamiyatli ta'sir ko'rsatmayapti va bu holatning asosida Triple Helix mexanizmining shakllanmaganligi yotadi.

Tahlil Xitoy modelini ham tanqidiy baholadi: qarz muammolari, overcapacity va hududiy tengsizlik O'zbekiston uchun mexanik nusxalash xavfini ko'rsatdi. Shu asosda taklif etilgan uch bosqichli mexanizm O'zbekistonga o'zining institutsional xususiyatlarini saqlab, Xitoy tajribasidan strategik rejalashtirish, innovatsion ekotizim va davlat-biznes hamkorligi bo'yicha asosiy saboqlarni o'zlashtirish imkonini beradi. 2030 yilga kelib R&D ni 1,5% ga yetkazish, eksportda qayta ishlangan mahsulotlar

ulushini 60% ga oshirish va sanoat YIM ulushini 32% ga ko'tarish asosiy maqsad sifatida belgilandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Naughton B. The Chinese Economy: Transitions and Growth. – MIT Press, 2007. – 686 p.
- [2] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston statistik yilnomasi 2022. – Toshkent, 2022. – 542 b.
- [3] Johnson C. MITI and the Japanese Miracle. – Stanford University Press, 1982. – 393 p.
- [4] Evans P. Embedded Autonomy: States and Industrial Transformation. – Princeton University Press, 1995. – 323 p.
- [5] Chang H.-J. Kicking Away the Ladder: Development Strategy in Historical Perspective. – Anthem Press, 2002. – 187 p.
- [6] Rodrik D. Industrial Policy for the Twenty-First Century // CEPR Discussion Paper. – 2004. – No. 4767.
- [7] Heilmann S., Shih L. The Rise of Industrial Policy in China, 1978–2012 // Harvard-Yenching Institute Working Paper Series. – 2013.
- [8] Li H., Zhou L. Political Turnover and Economic Performance // Journal of Public Economics. – 2005. – Vol. 89. – P. 1743–1762.
- [9] WIPO. Global Innovation Index 2022. – Geneva: World Intellectual Property Organization, 2022. – 245 p.
- [10] Transparency International. Corruption Perceptions Index 2022. – URL: <https://www.transparency.org>
- [11] North D. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. – Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
- [12] Lin J.Y. New Structural Economics. – World Bank, 2012. – 386 p.
- [13] Amsden A. Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization. – Oxford University Press, 1989. – 379 p.

- [14] Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Triple Helix — University-Industry-Government Relations // EASST Review. – 1995. – Vol. 14(1). – P. 14–19.
- [15] Worldwide Governance Indicators (WGI). – World Bank, 2022. – URL: <https://info.worldbank.org/governance/wgi>
- [16] Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies. – World Bank, 2020.